

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA QO‘SHIQLAR VA IJTIMOIIY TARMOQLAR O‘RNI: AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR

Axmadjonov Avazbek Akmaljon o‘g‘li

Qo‘qon Universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti

aaxmadjonov77@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8291-5321

[Tel: +998912026456](tel:+998912026456)

Annotatsiya Ushbu maqolada hozirgi kunda Ingliz tilini o‘rganishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va to‘siqlar Ingliz tilidagi qo‘shiqlar va ijtimoiy tarmoqlardagi forum, chat, yozishmalar va habarlar misolida ko‘rib chiqiladi. Ingliz tilining bir necha turdagi ko‘rinishlari, turli davlatlar va sohalarda ishlatilishini hisobga oladigan bo‘lsak, til o‘rganuvchilar uchun musiqiy materiallar va ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlar va yozma materiallar til o‘rganish uchun keng tarqalgan va doimiy davom etadigan jarayon namunalari hisoblanadi. Ushbu maqola shunday materiallardan foydalanish davrida yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan, standart Ingliz tilidan farqlanadigan grammatik va leksik birliklarga nazar soladi. Ingliz tilida so‘zlashuvchilarning nutqida ishlatiladigan elementlar ta’siri natijasida til o‘rganuvchilarda noto‘g‘ri tushunchalar hosil bo‘lishi va ularda ushbu xatoliklarga o‘rganib qolish holatlari tahlil qilinadi.

Keywords: ijtimoiy tarmoq, forum, qo‘shiq, standart Ingliz tili, shevalar, descriptive grammar, prescriptive grammar.

Kirish

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha turli davlatlarda zamonaviy metodlar, yondashuvlar va innovativ g‘oyalardan keng foydalanib kelinmoqda. Ingliz tili xorijiy til sifatida bir necha asrlar davomida boshqa til vakillari tomonidan o‘rganib kelingan va turli tillarda so‘zlashuvchilar uchun ham muloqot vositasi (*lingua franca*) sifatida hizmat qilib kelmoqda. Albatta bu jarayon o‘ziga xos qiyinchiliklar va bosib o‘tilishi kerak bo‘lgan bosqichlardan iborat. Til o‘rganish jarayonida dastlab o‘rganilayotgan tilning grammatik va lug‘at so‘zlariga e’tibor qaratilishi hech kimga sir emas. Bugungi kunga kelib til o‘rgatuvchi ekspertlar, mashxur tilshunoslar va o‘qituvchilar tomonidan grammatik jihatlariga keng e’tibor qaratib til o‘rganish har doim ham muhim rol o‘ynamasligi, til o‘rganish uchun asosiy to‘rt aspekt: tinglab tushunish, yozish, gapirish va o‘qish ko‘nikmalarini uyg‘unlashtirgan holda bir

xil tartibda o‘rganish kerakligi ta’kidlanib kelinmoqda. Shunga qaramay bu to‘rt aspect grammatika qismini o‘zida jamlaydi va ular orasida mantiqiy va mazmunan bog‘liqlikni saqlash uchun xizmat qiladi. Til o‘rganish davrida darsliklar, qo‘llanmalar va yozma materiallardan foydalanish bilan birgalikda, Ingliz tilidagi qo‘shiqlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan messenjerlar (Telegram, Instagram, Facebook); Youtube platformasi kabi video xostinglar ham o‘z qulayliklari va barcha uchun ochiqlik siyosati sabab o‘rganuvchilar uchun keng ma’lumotlar bazasini taqdim qilmoqda. Ayni vaqtda ushbu internet xizmatlaridan foydalanayotganlarning deyarli 20%ni 18-24 yoshdagi til o‘rganuvchilari tashkil qiladi va ular uchun asosan grammatikaga doir qoidalar va yangi so‘zlarni o‘rganish uchun yuqorida sanab o‘tilgani kabi ijtimoiy tarmoqlar kerak bo‘ladi. Lekin shu kabi internet manbalari, qo‘shiqlar va ijtimoiy tarmoqlarda doim ham tilga oid bo‘lgan elementlar to‘g‘ri va o‘rinli ishlatilmaydi. Dunyoda Ingliz tilida gapiradigan davlatlar va ijtimoiy qatlamlar turlicha ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, albatta, til birliklaridagi talaffuz, orfografik elementlar, so‘zlarning turli ma’nolarda kelishi holatlari til o‘rganuvchilarda yetarlicha ikkilanish va qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin [1]. Ushbu jarayonlarda til o‘rganuvchi asosan mustaqil ta’lim olishi va bilimlarni o‘zlashtirishi sabab, ma’lumotlardagi farqlar va o‘zgarishlarni izohlash, ularni tasniflash va ishlatilish o‘rinlarini anglab olish bilan bog‘liq to‘siqlar paydo bo‘ladi. Qo‘shiq tinglash va ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish, forumlarda chet tilida o‘z fikrini bildirish darsdan tashqari va kuzatuvchi talab qilmaydigan jarayon bo‘lganligi uchun, til o‘rganuvchilar uchun ular qulayroq, bosim his qilmaydigan va qiziqish doirasidan kelib chiqib tanlab olinadigan materiallar sirasiga kiradi. Til o‘rganuvchi o‘ziga ma’qul kelgan janr yoki mavzu asosida materiallarni tanlashi, ular orqali til birliklarining asosan soda, ba’zida murakkab turlarini o‘zlashtirishga urinib ko‘rinishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq va forumlarda Ingliz tili ona tili bo‘lgan foydalanuvchilar ishlatadigan muloqot namunalari orqali til o‘rganishga urinish yoshlarda sezilarli muammolar, jumladan so‘zlardan noto‘g‘ri foydalanish, qisqartmalar orqali yozish, shevaga hos so‘zlardan adabiy va standart Ingliz tilida foydalanishga urinishda kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, Ingliz tilida so‘zlashuvchilarning turlicha ekanligi, Ingliz tili ikkinchi til bo‘lib xizmat qiladigan, lekin asosan ingliz tilida muloqot qiladigan kishilar tomonidan tilga o‘zgarishlar olib kirilishi tilni standart va nostandart turlarga bo‘lib olish zaruratini paydo qiladi [2]. Quyida o‘tkazilgan keys izlanishlari va so‘rovnomalar natijalari yordamida ushbu jarayonning kamchili va afzalliklari, to‘g‘ri foydalanish usullari va til o‘rganish jarayoniga o‘tkazayotgan ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu jarayon tilshunoslikda OILE (Online Informal Learning of English) ya’ni ingliz tilini darsdan tashqari norasmiy uslubda o‘rganish deb nomlanadi va bu haqida Toffoli va Sockettning izlanishlarida keng miqyosda o‘tkazilgan keys loyihasi orqali ma’lumotlar va mulohazalar keltirib o‘tilgan [3].

Toffoli va Sockettning fikricha talabalarda musiqa va norasmiy manbalardan olingan ma’lumotlarga moslashish jarayoni tezroq amalga oshadi, chunki bu turdagi manbalar

o‘rganuvchining qiziqishiga qarab tanlanadi va ular qo‘shiq matnini o‘rganish maqsadida uning tarkibi bilan ham (grammatik va leksik jihatdan) tanishib chiqadi. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganuvchilar uchun bu jarayonda til o‘rganishga oid asosan ikkinchi darajali materiallar Internet resurslarining keng tarqalishi oqibatida o‘quvchilar uchun odatiy va qulay til o‘rganish manbasiga aylanib qolayotgani ta’kidlanadi.

Mualliflar fransuz universitetlaridagi talabalar orasida o‘tkazgan so‘rovnoma (asoslanib keys loyihasida: “... har ikki ishda ham shu narsa aniq bo‘ldiki, fransuz talabalari mustaqil til o‘rganish jarayonida asosan hozirgi paytda mashxur bo‘lgan qo‘shiqlar va ularning matnlari orqali til o‘rganishga e’tibor qaratmoqda.” fikrni ilgari suradi. Toffoli va Sockettning ilmiy izlanishidan yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish mumkin, u ham bo‘lsa talabalar qo‘shiqlar orqali til o‘rganish uchun hafta davomida bir necha soat sarflayotgani va bu jarayonda ijodiy va idrok qobiliyatlari shakllanib kelayotganligidir [3].

Yana bir boshqa izlanish jarayonida mualliflar Kusyk va Sockett musiqa va qo‘shiqlar avvallari shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, endilikda internet texnologiyalari sabab ulardan til o‘rganish maqsadida foydalanish keng tarqalganligini ta’kidlaydi [4]. Izlanish asosiy qismida talabalarning bu resurslardan qanday foydalanishi, bu jarayonda qaysi metodlar va yondashuvlardan foydalanilayotganligi, ushbu media materiallar talabalarda rostdan ham sezgirlik va tilni tushunish kabi ko‘nikmalarni hosila qila olishi yoki yo‘qligi so‘roq ostiga olinadi.

Arbib va Miras olib borgan tadqiqotlar natijalari ham qo‘shiqlardagi matnlar va til aspektlari orasidagi bog‘liqliklar ko‘plab topilishi: aqliy va ma’lumot qabul qilish jarayonlari; sintaktik o‘xshashliklar, qo‘shiq matnining inson miyasidagi jarayonlarga ta’siri va samaradorlik jarayonlari tahlil qilinadi[5].

O‘zbek tilshunosligida Xurramova-Omonboyeva olib borgan izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, izlanuvchilar amerikalik metodist, o‘qituvchi Carol Grahamning har qanday matnni qo‘shiqqa aylantirish mumkinligi haqidagi fikri va namunalari orqali qo‘shiqlar o‘rganuvchilarda ijodkorlikni o‘stirishi haqida fikr yuritadilar [6].

Petra esa ushbu jarayonning kamchiliklarini bir necha qo‘shiqlar orqali tahlil qilib, qo‘shiqlar ingliz tilini o‘rganuvchilarda noto‘g‘ri tushuncha va bilimlar paydo qilishi mumkinligiga e’tibor qaratadi [7]. Indoneziyalik rep qo‘shiqchisi Brian Richning qo‘shiqlari ustida olib borilgan ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, qo‘shiqlarda qofiya va ohang mos kelishi uchun aksariyat hollarda qo‘shiqchilar va shoirlar ba’zi grammatik birliklardan voz kechishlari yoki ularni matn ichidagi so‘zlarga moslashga harakat qilishadi va bu tinglovchilarda tushunish bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Ba’zi qo‘shiqlarda xattoki orfografik xatolar ham uchraydi, bu esa talabalarda so‘zlarni to‘g‘ri yozish qoidalarini yetarlicha e’tibor bilan o‘rganishga majbur qiladi. Petraning fikricha qo‘shiqlarda takroran uchraydigan xatolar asosan inkor so‘zlardan bir gap tarkibida keragidan ortiq foydalanish va ularni noto‘g‘ri joylarda ishlatish hisoblanadi [7]. Ba’zi matnlarda esa umumlashtirish holatlariga duch kelish mumkin va bu nafaqat lingvistik jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muammolarga sabab

bo‘lishi mumkin. Misol uchun ayollar va erkaklar haqidagi mavzularda turli tabaqa va gurux vakillarini umumlashtirib ko‘rsatish, turli millat va irqga mansub bo‘lgan kishilar haqida umumiy fikr bildirish holatlari qo‘shiqlarda uchraydi. Bu esa til o‘rganuvchilarda oddiy hol sifatida qaralishiga va real hayotda muloqot paytida turli gurux vakillari orasida tushunmovchiliklar va o‘zaro hurmatga ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Metodologiya

Ushbu izlanish davomida tadqiqotning asosiy elementi sifatida ingliz tilidagi qo‘shiqlar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, yozishmalar namuna sifatida olindi. Tadqiqot qatnashchilari sifatida universitet talabalari tanlab olindi va ular ishtirokida qo‘shiqlar va internet materiallaridan foydalangan holda tahliliy kuzatuv jarayonlari o‘tkazildi. So‘rovnoma va audio intervyular orqali talabalarning grammatik va og‘zaki nutqda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki shu paytgacha yuqorida keltirib o‘tilgan materiallar sabab o‘rnashib qolgan noto‘g‘ri tushuncha va fikrlar tahlili va ularni bartaraf qilish yo‘llari ko‘rib chiqildi.

Dastlab talabalar o‘rtasida qo‘shiqlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali til o‘rganish haqida so‘rovnoma o‘tkazildi va olingan natijalar yordamida internet manbalarining muhimlik va mavjudlik darajasi o‘rganib chiqildi.

Tadqiqot 2 bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqichda ilmiy ishni tashkillashtirish uchun ingliz tilidagi qo‘shiqlar va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishma va forumlardan namunalar ma’lumot sifatida yig‘ib olindi.

Ulardagi grammatik, leksik va orfografik xatolar, keng tarqalgan strukturalar o‘rganib chiqildi. Ulardan madaniy va ijtimoiy mos keladiganlari tanlab olinib foydalanish uchun tahlil qilib chiqildi.

2-bosqichda tanlab olingan materiallar yordamida talabalar o‘rtasida so‘rovnoma va audio intervyular o‘tkazildi hamda kelgusi natijalar yordamida ilmiy ish asosiy qismi bo‘yicha muhokama qilindi va tavsiyalar taqdim etildi.

Tadqiqot uchun tanlab olingan metodlar: so‘rovnoma va audio intervyular talabalarning fikri va ular og‘zaki hamda yozma nutqda ishlatib kelayotgan til birliklari kuzatuvlar o‘tkazish uchun mos keladi va bunda ham nazariy ham amaliy jihatdan yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi.

So‘rovnoma orqali bir nechta ishtirokchilarning turlicha fikr va javoblari berilgan savollar va tanlab olingan kategoriyalar qay darajada ular orasida keng tarqalganligi, qay biri foydali yoki murakkab ekanligi aniqlanadi. Bu turdagi metodlardan foydalanish turli xil ishtirokchilar bilan oldindan tayyorlab qo‘yilgan savollar to‘plami orqali ish olib boriladi, ishtirokchilar soni qay darajada ko‘p bo‘lishidan qat’iy nazar, savollar turi va soni o‘zgarmaydi va e’tibor asosan savollarga berilgan javoblar orasidagi nisbatga qaratiladi. Savollar turli xil ko‘rinishda: ko‘p tanlovli savollar, ochiq va yopiq turdagi savollar, Likert formati (savollarga darajaga moslashgan so‘zlar orqali ifodalanadi), shkalaga asoslangan savollar orqali qatnashchilarga mavzulashtirilgan savollar taqdim qilinadi va bu jarayon yuzma-yuz yoki masofaviy tarzda olib borilishi bu metodning yana bir afzalliklaridan hisoblanadi.

Audio intervyular asosan talaffuz va og‘zaki nutqga oid materiallarni tahlil qilish uchun kerak bo‘ladi. Yozib olingan audio fayllar orqali tadqiqotchi tahlil jarayonida og‘zaki nutqdagi o‘zgarishlar, intonatsiya, talaffuz qilish va so‘z tanlashga bog‘liq jarayonlarni qayta-qayta o‘rganib chiqish imkoniyati hosil bo‘ladi. Yozma va og‘zaki nutqda asosan ohang va so‘z tanlash bilan bog‘liq holatlar farqlanganligi uchun, audio intervyular bunday muammolarni chetlab o‘tishda katta foyda beradi. Audio intervyular orqali ishtirokchilarda yozma shakllarda chiqarib berish qiyin bo‘lgan fikr va mulohazalarni yetkazib berish mumkin. Talabalar bu turdagi ma‘lumot yig‘ish jarayonida o‘zlarini erkinroq tutadilar va javob berish uchun yetarlicha vaqt beriladi. Yig‘ilgan ma‘lumotlar keyinchalik matn holida tadqiqot natijalari bilan birgalikda taqdim qilinadi.

Tadqiqot uchun tanlab olingan qo‘shiqlar va forumlarda joylangan postlarda mavjud bo‘lgan grammatik va leksik xatolar tahlil qilindi. Quyidagi mashxur qo‘shiqchilar tinglovchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalarga asosan xatolardan iborat matnlardan tez-tez foydalanib turishi aniq bo‘ldi (1-jadval):

1-jadval. Qo‘shiq matnlarida lingvistik xatolar kuzatilgan mashxur qo‘shiqchilar

Briney Spears	so‘z tanlash bo‘yicha xatolar
Ariana Grande	so‘z tanlash bo‘yicha xatolar
Bob Dylan	keraksiz so‘zlarni ohang bilan moslash
The Rolling Stones	negativ so‘zlarni noo‘rin ishlatish

Forumlarda va ijtimoiy tarmoqlarda yo‘l qo‘yiladigan va ingliz tilida muloqot qiluvchilar uchun odatiy holga aylanib qolgan grammatik va leksik birliklar quyidagi grafik izohlanadi (2-jadval):

2-jadval. Ijtimoiy tarmoqlar va forumlardan olingan namunalar

your	you’re
To be fe’li o‘tgan zamon shakli (asosan afro-amerika guruxi vakillari tomonidan)	
were	was
its	it’s
too	to
grateful	greatful
doesn’t	don’t
haven’t/hasn’t/ to be + not	ain’t

Ushbu materiallar yordamida talabalar o‘rtasida ulardagi bilimlar va til birliklaridan foydalanish bo‘yicha tahlillar o‘tkazildi va ingliz tilini o‘rganish darajasiga ta’siri tahlil qilindi.

Natijalar

1-kurs talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan ushbu tadqiqot ishida 24 nafar talaba qatnashdi va o‘z fikrlari hamda taassurotlari yordamida tilni mustaqil o‘rganish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan va bo‘lmagan manbalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘ldilar. Qatnashuvchilarning 75%i qo‘shiqlarda beriladigan so‘zlar va grammatik birliklar qo‘shiqchilar ingliz tilida so‘zlashuvchilar bo‘lganligi uchun ham qoidalarga e’tibor qilmasliklarini, qolgan 25% talabalar esa qo‘shimcha to‘garaklar va darsliklarda berilgan qoidalarga bu matnlar mos kelmasligi va ularni asosan shunchaki qo‘shiq holida qabul qilishlarini ta’kidladilar [2]. Ishtirokchilar orasida eng ko‘p tarqalgan xato bu *to be* fe’lining shakllaridan noto‘g‘ri foydalanish bo‘lib, bunga sabab qo‘shiqlarda asosan ohangga va qo‘shiq matnidagi so‘zlar soni va muvozanatni ushlash uchun noto‘g‘ri birliklardan foydalanish ekanligi aniq bo‘ldi. Birinchi guruh qatnashchilari ushbu xatolarni ingliz tilidan birinchi til sifatida foydalanadiganlar ham ishlatishini ko‘rsatib, aynan shu manbalar orqali tilda ularda bu xatolar odatiy holga kelib qolganini bildirdi. Tilshunoslikda ushbu holat *fossilization* atamasi bilan izohlanib, uzoq vaqt davomida noto‘g‘ri til birliklari va mavjud bo‘lgan qoidalarni buzib ishlatish va keyinchalik ularni to‘g‘rilash qiyin holatga kelib qolishini bildiradi. Misol uchun, ispan tilida so‘zlashadigan kishilar ingliz tilida *he* va *she* so‘zlarini tez-tez chalkashtirib turadi va bunga sabab ispan tilida grammatik jihatdan barcha ot so‘z turkumiga aloqador bo‘lgan so‘zlarga gender tushunchasi bir xil ishlatilishidir.

So‘rovnoma natijalariga asosan:

1. The Rolling Stones guruhining qo‘shiqlariga asoslanib talabalar bir gap tarkibida 2ta va undan ortiq negativ ma’no beruvchi so‘zlardan foydalanish to‘g‘ri degan qarorga kelgan:

I can't get no satisfaction

I can't get no satisfaction

'Cause I try and I try and I try and I try

I can't get no, I can't get no

To‘g‘ri shakl esa quyidagicha bo‘lishi kerak:

I can't get *any* satisfaction

I can't get *any* satisfaction

'Cause I try and I try and I try and I try

I can't get, no, I can't get, no

2. Adele ning *Easy on me* qo‘shig‘ida:

There ain’t no gold in this river

There ain't no room for things to change

Grammatik jihatdan to‘g‘ri shakl:

There ain’t *any* gold in this river

There ain't *any* room for things to change

3. Sia – *Cheap Thrills* qo‘shig‘ida:

I don’t need no money

To‘g‘ri shakl:

I don’t need any money yoki I need no money


4. Britney Spears *Everytime* qo‘shig‘i:

Every time I try to fly, I fall

To‘g‘rilangan shakl: qo‘shiq nomida *Everytime* so‘zi qo‘shib, matn tarkibida esa bir necha marta alohida so‘z holida yozilgan:

Everytime I try to fly, I fall

Ushbu materiallar talabalarga berilganda quyidagi natijalar olindi (1-shakl):



1-shakl. Qo‘shiq matnlariga asoslangan so‘rovnoma natijalari.

Talabalar foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar va yozishmalardan olingan namunalarga asoslanib, ularda eng ko‘p tarqalgan xatolar so‘z tanlash, so‘zlarni tartib bilan joylashtirish, shuningdek ega va kesim so‘zlari orasida nomutanosiblik holatlari ekanligi aniq bo‘ldi (1 va 2-rasmlar):



1-rasm. Twitter (X) ijtimoiy tarmog‘idan olingan ona tili Ingliz tili bo‘lgan mashxur shaxs postidagi grammatik xatolik.



Andrew you can never fully understand how much you can miss a person until there gone.

6 minutes ago · Comment · Like



Kris at 12:29am May 30

you can never fully understand how much your status when you spell they're wrong.

2-rasm. Ijtimoiy tarmoqda grammatik xatolikka foydalanuvchilarning reaksiyasi.

Yuqoridagi namunalarda asosan ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan grammatik xatolar til o‘rganuvchilarda tilni o‘rganishda so‘zlardan noo‘rin foydalanish odatiy holga kelib qoladigan misollardan eng keng tarqalganlari: there so‘zini their so‘zi bilan chalkashtirish, your so‘zini you’re so‘zi qisqartmasi o‘rnida ishlatish va could have birikmasi talaffuzda odatlanib qolgan shaklda yozish, ya’ni have so‘zi o‘rniga of so‘zi ishlatilib “*could of*” shakliga kelib qolishi berilgan.

Til o‘rganuvchilarda bu kabi holatlar grammatik va leksik birliklarning asl shakllarini farqlash va ularni noto‘g‘ri shakllariga o‘rganib qolish holatlariga sabab bo‘ldi.

Muhokama

Til o‘zarib turuvchi va turli shakllarga ega jarayon ekanligini hisobga olib, o‘rganuvchilar til bilan bog‘liq yangilik va o‘zgarishlardan doimiy ravishda habardor bo‘lib turishlari ularda ham grammatik, ham leksik birliklardan to‘g‘ri foydalanishda katta foyda beradi.

Toffoli va Sockett ingliz tilidagi qo‘shiqlar orqali til o‘rganish jarayoni talabada turli xil materiallardan foydalanish va ularni qiziqishlarga moslab tanlash imkonini berishini ta’kidlaydi. Shunga qaramay til o‘rganuvchilar mustaqil ta’lim jarayonida to‘plangan ma’lumotlarni tekshirish va ularni taqqoslash kabi jarayonlarga yetarlicha e’tibor berishmaydi va bu holatda asosan musiqiy ohang va qo‘shiq matnidagi qofiyadosh so‘zlar va matnda berilgan voqealar ko‘proq rol o‘ynaydi. Matnlardagi so‘zlardan va tilga oid qoidalardan ularni tekshirib ko‘rmasdan foydalanish yuqorida keltirib o‘tilganidek fossilization holatini keltirib chiqarishi va hattoki til o‘rganuvchilarda boshqa manbalarga nisbatan ishonchsizlik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bunga sabab esa qo‘shiqlar ingliz tili asosiy til sifatida irod qiladigan qo‘shiqchilar yaratayotgan qo‘shiqlar va ularda grammatik va leksik xatolar mavjud bo‘lishi mumkinligiga tinglovchilarda shubha uyg‘onmasligidir.

Anastasiadou va Papantoni tadqiqoti natijalariga asosan til o‘rganuvchilarda qo‘shiqlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘proq yangi so‘zlar va ularning turli xil vaziyatlarda qo‘llanishi ekanligini ko‘rish mumkin. Albatta, bu kabi manbalar o‘rganuvchilarda ko‘proq so‘z yodlash va ularni ishlatishga turtki bo‘ladi. Bundan tashqari qo‘shiq tinglash orqali til o‘rganuvchilarda talaffuz bilan bog‘liq ko‘nikmalarni ham hosil qiladilar. Intonatsiya, ingliz tilida so‘zlashadigan davlatlardagi turli xil sheva va jargonga oid so‘zlar bilan tanishish imkoni ortadi [8].

Akbary va boshq., esa o‘z ilmiy izlanishi orqali talabalarga qo‘shiqlar orqali fe’lli biriklamalar, iboralar va so‘z birikmalarini samarali o‘rgatish metodikasi qay darajada foyda berishini ko‘rsatib beradi [9]. Shubhasiz bu metod til o‘rganuvchilar uchun foydali bo‘la oladi

va tarjima qilish jarayonida ba’zi birikmalar o‘z ma’nosini yo‘qotib, boshqa vazifani bajarmasligi uchun yetarlicha ko‘rsatma berishi mumkin.

Yuqoridagi fikrga zid ravishda Tegge ingliz tilidagi pop janriga hos qo‘shiqlar til o‘rganuvchilarda jargon va shevaga hos so‘zlardan foydalanish sabab qiyinchiliklar yuzaga keltirayotganini ta’kidlaydi [10]. Ushbu holatda talabalardagi yuzaga kelgan kamchiliklar va xatolar albatta o‘qituvchi tomonidan nazoratga olinishi va ushbu holatlar takrorlanmasligi uchun kerakli ko‘rsatma va mustaqil shug‘ullanish uchun manbalar taklif qilinishi maqsadga muvofiq. Tegge qo‘shiq tanlashda dars mavzusi, ijtimoiy va madaniy normalarga asoslangan holda, millat va hudud qadriyatlarini ham e’tiborga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Xurramova va Omonboyeva qo‘shiqlar orqali til o‘rganish jarayoni samara berishi uchun dars davomida va mustaqil o‘rganish jarayonida ularni qayta-qayta tinglash va so‘zlar bilan muntazam ravishda ishlash bu jarayonning ajralmas qismi ekanligiga urg‘u beradi. Ushbu yondashuv orqali talaba ongida grammatik va leksik birliklar shakllariga e’tibor (Focus on Form), so‘z va ba’zi o‘ziga xos atamalar izohlariga e’tibor (Focus on Meaning) kabi ko‘nikmalar shakllanadi va tinglovchi qo‘shiq matnidagi yashiringan grammatik qoidalar va leksik xususiyatlarni tushunib olishi osonlashadi.

Zhou ijtimoiy tarmoqlar haqida olib borgan ilmiy ishida ulardan foydalanish, onlayn platformalar orqali til o‘rganish o‘z natijalarini berayotgani haqida fikr yuritib, shu bilan birga, foydalanuvchilar ma’lumotlarni qabul qilish jarayonida ehtiyotkor bo‘lishlari va ularni turli xil manbalar orqali tekshiruvdan o‘tkazishlari zarurligiga e’tibor qaratadi [11]. Albatta internet saytlari orqali berib boriladigan har qanday ma’lumot ham ishonchli va aynan ingliz tili o‘rganuvchilari uchun ishlab chiqilgan bo‘lmasligi ham mumkin. Ijtimoiy tarmoqda yozishmalar orasida grammatik va leksik qoidalar qat’iy qilib belgilab qo‘yilmaganligi sabab foydalanuvchilar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan ko‘rinishda muloqot qilishlari va boshqalar bilan muhokamalarga kirishishlari mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari hamda tahlil qilingan maqolalarda berilgan fikrlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, til o‘rganuvchilar mustaqil ta’lim jarayonida o‘rganilayotgan va ma’lumotlar berilgan manbalarni ishonchlilik darajasini tekshirishi, taqqoslashi va til birliklari ishlatilayotgan muhit va vaziyatni baholay olishlari kerak. Til o‘rganish yoki bu boradagi bilimlarni oshirish uchun albatta birinchi navbatda olingan ko‘nikma va bilimlarni amalda qo‘llashga harakat qilish zarur. Bu jarayonda o‘rganuvchilarda yuzaga kelgan kamchiliklar oydinlashadi va muloqot davomida ularni aniqlash va to‘ldirish uchun o‘qituvchi yoki til o‘rgatuvchi mutaxassislar ishtirokida darslar olib borilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ta’lim jarayonida ba’zi materiallar va manbalar odatda standart Ingliz tilidan foydalanmasligi yoki turli tillarda o‘ziga xos bo‘lgan til birliklar qay tarzda o‘zgarib turishiga ahamiyat berish tavsiya qilinadi. Quyida kamchiliklarni to‘ldirish va ularni chetlab o‘tish uchun tavsiyalar beriladi:

1. Grammatik, orfografik va leksik xatolarni aniqlovchi ilova va veb saytlardan foydalanish: www.grammarly.com, www.quillbot.com, Word dasturi, Autocorrect xizmatilaridan

foydalanish. Ushbu ilova va saytlarga musiqa va ijtimoiy tarmoqlardagi postlar joylanganda, ulardagi xatolar maxsus belgilar bilan ajratib ko‘rsatiladi (ba‘zilari qoidalar bilan izohlab berilishi ham mumkin, faqat bu uchun ilova yoki saytda pulli obuna hisobiga ro‘yxatdan o‘tish talab qilinadi). Ba‘zi ilovalarda xatolar dastur tomonidan avtomatik ravishda to‘g‘rilab boriladi.

2. O‘rganilyotgan qo‘shiq matni, ijrochisi va tarmoqlardagi postlar kim tarafidan, qaysi til o‘rganuvchi gurux vakili ekanligiga e‘tibor berish, darsliklarda berilgan ma‘lumotlar bilan taqqoslab ko‘rish ulardagi kamchiliklarni aniqlashda yordamchi vazifasini bajaradi.

3. Sun‘iy intellekt yordamida til o‘rganishni yo‘lga qo‘yish: hozirgi paytda keng tarqalayotgan va til o‘rganuvchilari orasida mashxur bo‘lgan chatbotlarda ko‘p sonli tillar bo‘yicha yirik ma‘lumotlar bazasi mavjud bo‘lib, ovozli va yozma shaklda ular bilan muloqot qilish va til o‘rganishdagi o‘ziga xos qiyinchiliklardan o‘tishda yordam olish mumkin. Afzalliklaridan yana biri shundaki, bu chatbotlar ikki tilda, ya‘ni o‘rganilayotgan va ona tilida muloqot qilish imkonini mavjudligidir. *Learn AI* chatboti ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilari uchun individual yondashuv asosida kamchiliklarni aniqlash va ovozli real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi. Ulardan shaxsiy til o‘rgatuvchi instruktor sifatida foydalanish mumkin.

Mustaqil ta‘lim jarayoni til o‘rganuvchilar uchun doim qo‘shimcha vositalar ustida ishlash imkonini berishi mumkin. Qo‘shiq va ijtimoiy tarmoqlar orqali til o‘rganuvchida passiv o‘rganish jarayoni davom etib turadi va darsdan tashqari vaziyatlarda ham yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati ortadi. Shubhasiz, bu jarayonlar yanada samarali bo‘lishi uchun o‘rganilayotgan ma‘lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va mutaxassis nazoratidan o‘tkazish zaruriyati o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Akhmadjonov Avazbek. (2024). THESIS FOR A RESEARCH ON ZONE OF PROXIMAL DEVELOPMENT AND ITS EFFECTIVENESS. University Research Base, 39–46. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/285>

2. Akhmadjonov, A. (2023). THESIS FOR THE ANALYSIS OF GRAMMAR ACTIVITIES. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 94–97. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/4801>

3. Arbib, M. A. (2013). Language, Music, and the Brain: A Mysterious Relationship. MIT Press.

4. Helgotsson, M. (2021). Grammatical features of African American Vernacular English in the movie Sextuplets: A sociolinguistics study of the speech of the two African American characters Alan and Dawn.

5. Ilyasxonovna, X. M., & Ixtiyorovna, O. M. (2023). Chet tilini o‘qitishda qo‘shiqlardan foydalanishning ahamiyati. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 3(2), 193-195.

6. Kusyk, M. & G. Sockett. (2012). “From informal resource usage to incidental language acquisition: the new face of the non-specialist learning English”. ASp. la revue du GERAS, 62: 45-65.
7. Jazvin, E. (2024). The effect of music on the second language acquisition in English.
8. Sockett, G. (2014). Forthcoming. The Online Informal Learning of English. Houndmills, Basingstoke, Hampshire, UK: Palgrave Macmillan.
DOI: 10.1057/9781137414885
9. Toffoli, D. & G. Sockett. (2010). “How non-specialist students of English practice informal learning using web 2.0 tools”. ASp. la revue du GERAS, (58): 125-144.
doi:10.4000/asp.1851.
DOI: 10.4000/asp.1851
10. Petra, A. (2018). GRAMMATICAL ERRORS AND THEIR EFFECTS IN RICH BRIAN’S SONGS.
11. Zhou, Y. (2021, December). Impacts of social media on language learning: A review of literature. In 2021 4th International Conference on Humanities Education and Social Sciences (ICHESS 2021) (pp. 743-749). Atlantis Press.